O‘ZBEK FALSAFASI RIVOJIDA TASAVVUF TA’LIMOTINING O‘RNI

Ismoilov Sobirjon
GulDU dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek falsafasi, O‘zbekiston falsafasi, mustaqillik falsafasi, milliy falsafa va o‘zbek falsafasi rivojida tasavvuf ta’limotining o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: falsafa, O‘zbekiston, mustaqillik, milliy falsafa, o‘zbek falsafasi rivoji, tasavvuf talimoti.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda “O‘zbek falsafasi” (S.Shermuxamedov, Q.Nazarov), “O‘zbekiston falsafasi” (B.To‘raev, Sh.Xaitov), “Mustaqillik falsafasi” (A.Jalolov), “Milliy falsafa” (Q.Nazarov) deb atalib kelinayotgan tom ma’nodagi milliy falsafa shakllandi. Bu tushuncha-iboralarni shakli har xil bo‘lsada mohiyat ular bir, uyg‘un mazmunni ifodalaydi. Umumiy holda esa o‘zbek falsafasi degan tushunchani o‘zida aks ettiradi va ifodalaydi.

“O‘zbek falsafasi” tushunchasi xalqimizning falsafiy tafakkuri, ongi va dunyoqarashining rivojlanish bosqichlari, tushuncha va kategoriyalari, ma’naviy tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi[1].

O‘zbekiston falsafasi Sharq falsafasining tarkibiy qismiga kiruvchi va o‘zbek xalqining o‘ziga xos bo‘lgan tafakkur tarzining ifodasidir[2].

Mustaqillik falsafasi – jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga, hur millatlar orasida o‘z ovoziga ega bo‘lishiga azmu qaror qilgan mustaqillik O‘zbekiston[3] falsafasidir.

Milliy falsafa-muayyan millatning tabiiy-tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga kelgan, moddiy va ma’naviy hayot ta’sirida takomillashib va boyib boradigan milliy ruh va mental xususiyatlar, madaniy me’ros, milliy til va muomala, amaliy faoliyat va o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘ladigan milliy dunyoqarash va tafakkur tarzi, ularga xos falsafiy tushuncha[4].

---

[1] Назаров К. Ўзбек фалсафаси. -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти,, 2013. 9-бет.
[2] Тўраев Б. Фалсафа тарихининг қисқача баёни. // “Имом ал-Бухорий сабоқлари” журнали. 2010 йил № 2 сон, 136-бет.
[3] Жалолов А. Ўзбекистон: мустақиллик, маънавият, мафкура. -Т.: Ўзбекистон, 1994. 60-бет.
[4] Назаров К. Жаҳон фалсафий қомуси. Биринчи китоб. А-Н. -Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2022. 808-бет.

Jahon falsafasi tarixidagi falsafiy maktablarni atalishi va nomlariga nazar solganimizda, ularni uch nom bilan yuritilganligini ko'rish mumkin:

birinchi, xind, xitoy, yunon, arab, nemis, rus falsafa maktablari,

ikkinchi, ioniya, (Ksenafon, Anaksagor, Fales), Milet (Fales), Efes (Geraklit), Eley (Ksenafon), Likey (Aristotel), Kren (Aristipp), Marburg (German Kogen), Baden (Vindelband) falsafa maktablari,

uchinchi, pifagorchilar (Pifagor), epikurchilar (Epikur), kiniklar (Antisfen), stoiklar (Zenon), neoplatonizm (Plotin), elido-eretrik (Fedon), ma'rifatparvarlar maktabi kabi. Shu ma'noda talqin etsak bizning milliy falsafa maktabimizni: o'zbek falsafa maktabi, O'zbekiston falsafasi yoki Ibrohim Mo'minov falsafa maktabi deb nomlashga to'liq haqlimiz.

Milliy mustaqillik mafkurasini shakllantirish va komil insonni tarbiyalash borasida xalqimizning ma'naviy, falsafiy, shu jumladan tasavvufiy merosning alohida ahamiyati bor.

Jahon xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotida yurtimiz alohida o'rin tutadi. To hozirgacha O'zbekiston Sharq va G'arb mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha yo'nalish va sohalari, jumladan, ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotida o'zining sezilarli izini qoldirib kelgan. Bu jarayon mustaqillik davrida ham davom ettirildi.

Milliy falsafiy merosimizning muhim qismini tasavvuf ta'limoti va qadriyatlari, shu jumladan aynan bizning Vatanimiz - Turkistonda shakllanib, endilikda butun dunyoga tarqalgan, jahon ilm-fani, madaniyati, umuminsoniy qadriyatlari taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, uch buyuk tasavvufiy tariqatlar: yassaviya, kubroviya va xojagon-naqshbandiya tariqatlari tashkil etadi va bu qaysi bir jihatdan o'zbek falsafasining nazariy asoslaridan biridir. Ushbu jarayonni zamonaviy-falsafiy qarashlar nuqtai nazardan tadqiq etish ham ilmiy, ham ijtimoiy-amaliy ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borar ekan, umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligini rasman e'lon qilgan.

O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati bunyod etilayotgan hozirgi jarayonda, insonni barcha imkoniyatlarini namoyon qilishga, o'zligini anglashga sharoit yaratilgan. Bu borada o'zbek falsafasining nazariy asoslaridan biri bo'lgan tasavvuf ta'limotida, bir qator g'oya, nazariya va tajribalar mavjud.

Tasavvuf ta'limotining o'zbek falsafasi shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni mavzusi yuzasidan bir qator olimlarimiz I.Mo'minov, V.Zohidovlar sho'ro davrida va O.Fayzullaev, R.Nosirov, H.Aliqulov, R.Shodiev, G.Navro'zova va boshqalar mustaqillik davrida tadqiqotlar olib borgan.

Tasavvuf va falsafaning o'ta murakkab hodisa ekanligi, ayni paytda, uni o'rganuvchi fanlar o'rtasida umumiylik va yakdillikning yo'qligi tadqiqotchilar oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi-ki, bu olimlarimizdan tasavvuf va falsafaning ob'ektini o'rganuvchi barcha fanlarning tadqiqot darajalari, usullari, qoida va vositalarini, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik holatlarini chuqur tahlil qilishni va shu asosda, umumiy xulosaga kelishni talab qildi. Bu borada, O'zbekiston olimlari tasavvuf va falsafa muammolarini har tomonlama kompleks o'rganish, tasavvuf va falsafaning madaniyat tizimida tutgan o'rni kabi masalalar borasida ko'pgina maqola, risola va monografiyalar chop etishgan hamda dissertatsiyalar himoya qilishgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarni tasavvuf va milliy o'zbek falsafasi haqidagi bir butun bilimlar tizimini yaratishga qaratilgan harakatlar sifatida ko'rsatish mumkin. Bu borada o'tgan asrning 50-70 yillaridayoq o'zbek faylasufi I.M.Mo'minov va boshqa bir guruh tadqiqotchilarning ishlarida o'zida barcha ijtimoiy fanlardagi mavjud ilg'or yutuqlarni birlashtiruvchi, alohida fan tarmog'i sifatida shakllanishi mumkin bo'lgan, milliy falsafa nazariyasini yaratish zarurligi va hozirgi fan taraqqiyoti, yaqin kelajakda, albatta, shu maqsadga erishishi muqarrar ekanligi haqidagi fikrni ilgari surganliklari ahamiyatga molikdir.

Bundan tashqari, tasavvuf va o'zbek falsafasi aloqadorlik ob'ektiga kompleks yondashish metodologiyasi buyicha tadqiqot olib borgan zabardast olimlarimizdan biri akademik S.Shermuxamedovning fikricha, tasavvuf va o'zbek falsafasi aloqadorlik nazariyasi bir butun tizim bo'lib, uni, shartli ravishda, ikki qismga bo'lish mumkin. Ushbu nazariyaning birinchi qismi tasavvuf ob'ektini o'rganish qoida va usullari, tushuncha va kategoriyalari, nazariyaning funktsiyasi

va shakllanish tarixi kabi masalalarni o‘z ichiga olsa, ikkinchi qismi milliy falsafa haqidagi bilimlar tasnifiga doir empirik, maxsus ilmiy, sotsiologik va falsafiy qarashlarni qamrab oladi.

Tasavvuf va o‘zbek falsafasi aloqadorlik ob’ektini har tomonlama kompleks o‘rganishga qaratilgan, insonshunoslik, deb nomlanuvchi yaxlit bir butun nazariyani yaratishda ham umummetodologik masalalarni to‘g‘ri hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon xalqlari falsafiy tafakkuri taraqqiyotida olamshumul ahamiyatga molik g‘oya va ta’limotlar Er kurrasidagi aksariyat xalqlarni va hududlarni qamrab oladi. O‘shanday vazifani mamlakatimiz ijtimoiy-falsafiy ta’limotlar tarixida tasavvuf ta’limoti va falsafasi bajargan hamda milliy falsafamizning shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bo‘lgan. Shu ma’noda Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari: yassaviya, kubroviya va xojagon-naqshbandiyani o‘zbek falsafasining tarkibiy qismi va g‘oyaviy-nazariy asosi deyishga haqlimiz.

Istiqlol davrida falsafa tarixi, uning takomil bosqichlari, alloma bobolarimizning falsafiy merosi bilan bog‘liq muhim masalalarga O.Fayzullaev, M.Xayrullaev, H.Aliqulov, U.Uvatov, B.Turaev, R.Nosirov, M.Qodirov, A.Sharipov, A.Zohidov, G.Navro‘zova, Sh.Madaevalarning asarlari va tadqiqotlari bag‘ishlangan. Bu mavzuda uzoq yillar davomida O‘z FA Falsafa va huquq instituti “Falsafa tarixi” bo‘limi va O‘zMUning shu yo‘nalishdagi kafedrasi mutaxassislari tadqiqotlar olib borganlar. Shu bilan birga ayni paytda 300-400 nafar faylasuf olimlari o‘zbek falsafasi taraqqiyotiga munosib ulushlarini qo‘shib kelayotgan bir chog‘da, ularning ma’lum qismi tasavvuf falsafasi muammolarini o‘rganishda jonbozlik ko‘rsatishmoqda.

Falsafiy g‘oyalar va ta’limotlarning insoniyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masalalar hamma davrlarda bo‘lgani kabi, hozir ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotning tub burilish davrlarida, xususan istiqlol tufayli xalqimiz hayotida ro‘y berayotgan bugungi tub o‘zgarishlar jarayonida falsafa tarixining asl mazmun-mohiyatini va ahamiyatini chuqur bilish, uning usul va g‘oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tasavvuf ta’limotining falsafa tarixida o‘ziga xos va mos o‘rni borki, buni baholi qudrat yoritishga harakat qildik va quyidagi xulosalarga keldik:

-falsafa, falsafa tarixi va falsafiy tafakkur insoniyat hayotida etakchi o‘rin tutuvchi, o‘ziga xos hodisalardan biridir;

- tasaffufiy merosda falsafaning inson kamolotida o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlab o‘tilgan;

-falsafa tarixida nafaqat ilmiy-madaniy markazlardan, balki yurtimizdan etishib chiqqan, jumladan 300-400 нафар falsafa fanlari doktorlari, professorlar va ularning zamondoshlarining ham o‘ziga xos va mos o‘rinlari bor.

-ko‘pchillik ta’limotlarga xos bo‘lgan gumanistik meros va unga yondashuv tasavvuf ta’limoti va falsafa tarixi o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikka ham xos jihatdir.

Demak, o‘zbek falsafasi rivojida tasavvuf ta’limotining o‘rni, mazmun-mohiyati, ahamiyati umuminsoniy mazmun kasb etib bashariyat falsafiy merosidan ayricha emas.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jalolov A. O‘zbekiston: mustaqillik, ma’naviyat, mafkura. -T.: O‘zbekiston, 1994.
2. Nazarov Q.O‘zbek falsafasi. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti,, 2013.
3. Nazarov Q. Jahon falsafiy qomusi. Birinchi kitob. A-N. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2022.
4. To‘raev B. Falsafa tarixining qisqacha bayoni. G‘G‘ “Imom al-Buxoriy saboqlari” jurnali. 2010 yil № 2 son.